



INSTITUTIONALIZATION OF CIVIC PARTICIPATION IN ENSURING PUBLIC SAFETY: THE JAPANESE MODEL

Abatbay Askerbaevich Urazbaev

The Education center for special training

Department for the coordination of special operations of the Ministry of Internal affairs of the Republic of Uzbekistan

E-mail: urazbaev.abat@mail.ru

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: public safety, Japan, koban, mutual responsibility, institutionalization, civic participation, police activity, crime prevention system, Confucian ethics, gonin-gumi, tonari-gumi.

Abstract: The article provides a comprehensive analysis of the history, modern system and effectiveness of the institutionalization of civic participation in ensuring public safety in Japan. The influence of Confucian and Shinto ethics, the koban and chūzaishō systems, as well as the legal framework and institutional features are studied in depth.

Received: 17.04.26

Accepted: 18.04.26

Published: 19.04.26

YAPONIYA MODELIDA JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA FUQAROLIK ISHTIROKINING INSTITSIONALIZATSIYASI

Abatbay Askerbaevich Urazbaev

O'zbekiston Respublikasi IIV Maxsus operatsialarni muvofiqlashtirish boshqarmasi

Maxsus tayyorganlik o'quv markazi siki boshlig'i

E-mail: urazbaev.abat@mail.ru

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Yaponiya, jamoat xavfsizligi, koban, institutsionalizatsiya, fuqarolik birlashmalari, politiya, jinoyatlarning oldini olish, huquqiy tizim, konfutsian etikas konfutsiylik etikasi, gonin-gumi, tonari-gumi.

Annotatsiya: Maqolada Yaponiyada jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolik ishtirokining institutsionalizatsiyasi tarixi, zamonaviy tizimi va samaradorligi kompleks tarzda tahlil qilinadi, zarur omillar tizimlashtiriladi va xalqaro taqqoslash asosida baholanadi. Konfutsiylik va sinto etikasi ta'siri, koban va chūzaishō tizimi, shuningdek, huquqiy bazasi hamda institutsional

ИНСТИТУЦИОНАЛИЗАЦИЯ ГРАЖДАНСКОГО УЧАСТИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ ОБЩЕСТВЕННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ: ЯПОНСКАЯ МОДЕЛЬ

Абатбай Аскербаевич Уразбаев

*Учебный центр специальной подготовки Управления координации специальных операций
МВД Республики Узбекистан*

E-mail: urazbaev.abat@mail.ru

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Япония, кобан, комплексный анализ истории, современной системы и эффективности институционализации гражданского участия в обеспечении общественной безопасности в Японии. Глубоко изучается влияние конфуцианской и синтоистской этики, системы кобан и чудзаисё, а также правовая база и институциональные особенности.
общественная безопасность, взаимная институционализация, участие, полицейская деятельность, конфуцианская этика, гонин-гуми, тонари-гуми.	

Kirish. Zamonaviy dunyoda ijtimoiy tahdidlarning murakkablashuvi va jinoyatchilikning yangi shakllarini rivojlanishi munosabati bilan faqat davlat organlari tomonidan amalga oshiriladigan jamoat xavfsizligini ta'minlashning an'anaviy modellari cheklangan samaradorlikni namoyon etmoqda. So'nggi yillarda jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimida fuqarolik jamiyati institutlarini jalb etish mexanizmlariga qaratilgan yondashuvlar tobora keng tarqalmoqda. Aynan shu kontekstda Yaponiya tajribasi o'zining barqaror institutsional sinergetikasi va yuqori samaradorligi bilan alohida qiziqish uyg'otadi.

Tadqiqotning dolzarbligi Yaponiya modelining tarixiy rivojlanish zaxirasini, madaniy asoslarini va huquqiy jihatlarini kompleks tahlil qilish zaruratida yotadi. Xususan, Yaponiyada 2002-2015 yillar oralig'ida jinoyatchilik darajasining 64 foizga kamaygani [2], ushbu mamlakatning xalqaro miqyosda jamoat xavfsizligini ta'minlash samaradorligi bo'yicha yuqori reytinglarda qayd etilishi bu modelning amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, O'zbekiston va boshqa davlatlar sharoitida mazkur tajribani chuqur tahlil qilgan ilmiy tadqiqotlarning cheklangani uni o'rganishning dolzarbligini yanada oshiradi.

Tadqiqotning maqsadi Yaponiya modelida jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolik ishtirokining institutsionalizatsiyasiga xos xususiyatlarni, shakllanish omillarini va barqarorlikni ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: modelning madaniy-falsafiy asoslarini tahlil qilish; tarixiy va zamonaviy institutlarning evolutsiyasini o'rganish; zamonaviy mahalliy politsiya va fuqarolik birlashmalar tizimini tavsiflash; fuqarolik ishtirokini huquqiy jihatdan rasmiylashtirishning huquqiy bazasini tahlil qilish; statistik ko'rsatkichlar asosida model samaradorligini baholash; modelning o'ziga xosliklarini solishtirma kontekstda ochib berish.

Tadqiqotning ilmiy gipotezasi: Yaponiya modelining samaradorligi madaniy legitimatsiya, tarixiy uzluksizlik (kontinuitet) va huquqiy moslashuvchanlikning alohida ta'sirida emas, balki ushbu omillarning o'zaro integratsiyalashgan va bir-birini mustahkamlovchi tizimiy uyg'unligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot metodologiyasi: Asosiy metodologik yondashuv sifatida normativ-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili qo'llandi. Shu bilan birga, tarixiy-huquqiy, statistik va solishtirma-huquqiy usullar majmuasi tadqiqotning kompleks xarakterini ta'minlandi. Tahlil ob'ektiga Yaponiya politsiyasi qonuni (1954), Mahalliy o'zini o'zi boshqarish qonuni (1947), Tokyo, Osaka va Kyoto prefekturalarining 2020-2023-yillardagi mahalliy qarorlari kiradi. Statistik ma'lumotlar NPAning yillik hisobotlariga asoslandi. Tadqiqotning geografik chegarasi Yaponiya hududida mahalliy politsiya xizmati faoliyati bilan chegaralangan. Tadqiqotning tarixiy chegaralari Tókugava davrida (1603) tashkil etilgan gonin-gumi tizimidan boshlangan va 2023-yilgi zamonaviy koban tizimi bilan chegaralangan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yaponiya modeliga bag'ishlangan xalqaro ilmiy adabiyotlar neokonfutsiylik, ijtimoiy kapital va davlat hamda jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar nazariyalari. Tadqiqotda Ch.Nakane [3], D.Botsman [4], S. Garon [5] va D.Beil [6] ishlariga tayaniladi. Shuningdek, Yaponiya Milliy politsiya agentligining (NPA) rasmiy statistikasi va huquqiy hujjatlari asosida tadqiqot o'tkazildi [2; 11].

Tadqiqotlar Yaponiya modelining madaniy-falsafiy, tarixiy-huquqiy va institutsional asoslarini tahlil qilish, shuningdek, uning samaradorlik ko'rsatkichlarini baholash imkonini berdi.

Natijalar. Madaniy-falsafiy omillarning tahlili. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, Yaponiya jamoat xavfsizligi tizimi konfutsiychilik va sinto etikasining sinergetik ta'sirida shakllangan. Markaziy o'ringa "wa" (tinchlik va garmoniya) printsipi, kollektiv javobgarlik va ierarxik ijtimoiy munosabatlar joy olgan. Yapon jamiyatida shaxsning xatti-harakati guruhga tegishliligi (uchi) bilan belgilanadi, huquqiy me'yorlardan ko'ra ko'proq ijtimoiy kontekst bilan. Bu holat individualistik huquq tizimlaridan tubdan farq qiladi. Shunday qilib, jinoyat sodir etish nafaqat huquqiy me'yorni buzish, balki ijtimoiy va axloqiy tartibning izdan chiqishidir, bu esa ichki (gorizontal) nazorat mexanizmlarining faollashuviga olib keladi.

Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, Yaponiyada deviant xatti-harakatlar nafaqat huquqiy, balki kuchli norasmiy ijtimoiy jazoga ham duchor bo‘ladi, bu esa ma‘lum darajada rasmiy institutlarning aralashuviga bo‘lgan ehtiyojni kamaytiradi [1; 7; 8].

Tarixiy institutlarning evolutsiyasi.

Tadqiqotlar Tokugava davrida (1603–1868) “gonin-gumi” (五人組) tizimi tashkil etilganini ko‘rsatdi. Ushbu tizim besh uydan iborat mahalliy guruhlar asosida o‘zaro huquqiy va ijtimoiy javobgarlik mexanizmini shakllantirgan [4]. Mahalliy nazorat, anonim xabar berish va kollektiv javobgarlik tizimi tufayli markaziy hokimiyat aralashuvi minimal darajada bo‘lgan. Mura-okite – umuman qabul qilingan axloqiy va tartib normalari tizimi – o‘zini o‘zi nazorat qilish mexanizmlari bilan uyg‘unlashib, jinoyatchilik darajasining sezilarli pasayishiga olib kelgan [5].

Meiji davrida (1868-1912) sanoatlashtirish va shaharlashuv jarayonida “tonari-gumi” (隣組) tizimi shakllantirildi. Bu tizim gonin-gumi tizimiga nisbatan yanada rasmiy va majburiy xususiyatga ega bo‘lgan ijtimoiy institut sifatida faoliyat ko‘rsatgan. Har bir guruhdagi 10-15 ta xo‘jalik aholining xavfsizligini ta‘minlash, resurslarni (jumladan to‘qimachilik mahsulotlarini) taqsimlash, hamda davlat obligatsiyalarini targ‘ib qilish vazifalarini bajargan [4]. Mazkur institut zarur holatlarda yordamchi politsiya kuchi sifatida ham faoliyat yuritgan va fuqarolarning harbiy-tashkiliy tayyorgarligini oshirishga xizmat qilgan.

1947-yilgi demokratik islohotlar “tonari-gumi” tizimini bekor qildi va uning o‘rniga “chōnaikai” (町内会) hamda “jichikai” (区議会) kabi ixtiyoriy qo‘shni birlashmalarini shakllantirdi [6]. Ushbu tuzilmalar rasmiy huquqiy maqomga ega bo‘lmagan bo‘lsa-da, mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlari va politsiya bilan yaqin hamkorlikda faoliyat yuritadi.

Zamonaviy mahalliy politsiya tizimi. Yaponiyada 1874-yilda tashkil etilgan markazlashtirilmagan (dezentralizatsiyalashgan) politsiya tizimi hozirgacha amal qiladi. Shahar hududlarida “koban” (交番), qishloq joylarda esa chūzaishō (駐在所) faoliyat ko‘rsatadi [7]. 2023-yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatda 6 300 ta “koban” va 6 400 ta “chūzaishō” mavjud bo‘lib, bu fuqarolarning 90 foizdan ortig‘i uchun politsiya punktigacha 10 daqiqalik yurish masofasida yetib borish imkonini ta‘minlaydi [2].

Kobanlar nafaqat huquqni muhofaza qilish, balki ijtimoiy yo‘naltirilgan vazifalarni ham bajaradi. Ularning turar joy massivlarida joylashuvi fuqarolarning politsiyaga murojaat qilishdagi psixologik to‘siqlarini kamaytiradi hamda o‘zaro ishonch asosidagi kommunikatsiyani

rivojlantiradi [8]. Koban xodimlari patrullik, xavfsizlik bo'yicha maslahat berish, jamoaviy nizolarni hal etish, shuningdek, profilaktik ma'ruzalar o'tkazish bilan shug'ullanadi.

Hera ta'kidlaganidek, kobanlar "affektiv arxitektura shakllari" sifatida fuqarolarda doimiy vizual mavjudlik orqali xavfsizlik hissini kuchaytiradi. Tizimning barqarorligi o'zaro javobgarlik me'yorlari va politsiya hamda fuqarolar o'rtasidagi ishonchga asoslangan [9]. Fuqarolik birlashmalarining roli. Zamonaviy modelda "xavfsiz shaharlarni" belgilovchi mahalliy qarorlar orqali legalizatsiya qilingan keng miqyosli ko'ngilli assotsiatsiyalar tarmog'i xarakterli. Asosiy element "Hōhan Kyōkai" (防犯協会) – fuqarolarni, tadbirkorlarni va hokimiyat vakillarini jinoyatlarning oldini olish choralari uchun birlashtiradigan assotsiatsiyalar [10].

Assotsiatsiyalar faoliyati. Ushbu tuzilmalar axborot-targ'ibot ishlarini olib borish, patrullikni tashkil etish, zaif aholi qatlamlariga maslahat berish va profilaktik-ta'lim kampaniyalarini o'tkazishni o'z ichiga oladi. Mahalliy darajada 46 mingdan ortiq ko'ngilli patrul tashabbuskorlari tomonidan 3 milliondan ortiq fuqarolar jalb etilgan [11]. "Sekin patrul qilish" (slow patrol) uslubi shahar muhitini chuqur bilish va fuqarolar bilan uzoq muddatli ijtimoiy aloqalarni shakllantirish tamoyiliga asoslanadi.

Masalan, Tokyo prefekturasida 2022-yilda amalga oshirilgan "Xavfsiz hudud" dasturi doirasida 15 000 nafar fuqaro koban xodimlari bilan birgalikda patrullikda ishtirok etgan [12]. Huquqiy baza. Tizimning huquqiy asosini 1954-yilgi Politsiya to'g'risidagi qonun (警察法) [13] hamda 1947-yilgi Mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi qonun [14] tashkil etadi. Federal darajadagi yagona qonun hujjati mavjud emas, biroq bu mahalliy darajadagi ko'p bosqichli normativ-huquqiy tartibotlar tizimi orqali kompensatsiya qilinadi. Prefekturalar va shahar hokimiyatlari ko'ngilli tuzilmalar faoliyatini tashkil etish, moliyalashtirish, politsiya bilan hamkorlik mexanizmlarini belgilash hamda rag'batlantirish tizimini yaratish bo'yicha mahalliy qarorlar qabul qiladi. Bunday huquqiy moslashuvchanlik har bir mintaqaning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini inobatga olish imkonini beradi.

Model samaradorligi. Tadqiqotlar Yaponiya modelining samaradorligini tasdiqlaydi. NPA ma'lumotlariga ko'ra, 2002-2015-yillar oralig'ida jinoyatchilik darajasi 64 foizga kamaygan [2]. Uzoq muddatli dinamikada esa, 1989-2021-yillar oralig'ida jinoyatchilik darajasi 28,5 foizga pasaygan (100 ming aholiga nisbatan 2 256 tadan 1 614 holatgacha) [16]. Shu bois, Yaponiya bugungi kunda dunyoning eng xavfsiz davlatlaridan biri sifatida xalqaro miqyosda e'tirof etilgan [15].

Muhokama. Tadqiqot natijalari Yaponiya modelining barqarorligini quyidagi o'zaro bog'liq beshta omil orqali izohlash imkonini beradi:

Birinchi omil – madaniy legitimatsiya. “Wa”, “uchi” va o‘zaro javobgarlik normalari modelning ijtimoiy qabul qilinishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Fuqarolarning xavfsizlikni saqlashni tabiiy fuqarolik vazifasi sifatida qabul qilishi rasmiy nazorat ehtiyojini kamaytiradi. Madaniy nazorat mexanizmlarining kuchliligi bevosita jinoyatchilikning past darajasi bilan bog‘liq [3].

Ikkinchi omil – tarixiy kontinuitet. Koban va “chūzaishō” tizimining desentralizatsiyalashgan arxitekturasi politsiyaning fizik va psixologik jihatdan aholiga yaqinligini ta’minlaydi, ijtimoiy kapitalni shakllantiradi hamda o‘zini o‘zi nazorat qilishni kuchaytiradi. Tarixiy institutlarning zamonaviy shakllarga evolyutsiyasi urf-odat va huquq o‘rtasida barqaror uzviylikni yaratadi [4].

Uchinchi omil – huquqiy moslashuvchanlik. 3 milliondan ortiq ko‘ngillini jalb etuvchi “Hōhan Kyōkai” kabi fuqarolik birlashmalarining keng tarmog‘i rasmiy huquqiy kafolatlar yo‘qligiga qaramay, amalda ijtimoiy-huquqiy himoya tizimini shakllantiradi. Mahalliy qarorlar va NPA ko‘rsatmalariga asoslangan ko‘p darajali normativ-huquqiy mexanizmlar tizimning moslashuvchanligini ta’minlaydi [10].

To‘rtinchi omil – funktsiyalarning kompleksligi. “Koban”lar faqat huquqni muhofaza qilish funktsiyalarini emas, balki ijtimoiy xizmat, ta’lim va nizolarni hal etish faoliyatini ham amalga oshiradi [8]. 2000-yillardan boshlab ko‘ngillilik harakatining kengayishi mahalliy xavfsizlik kampaniyalari faoliyatining institutsional mustahkamlanishiga olib kelgan [11].

Beshinchi omil – raqamli transformatsiya. NPA axborot portallari va raqamli platformalari ko‘ngilli tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish va tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar an’anaviy shaxsiy munosabatlarni to‘liq almashtirmaydi, balki ularni qo‘shimcha tarzda mustahkamlaydi [17].

Cheklovlar va tanqidiy baholash. Biroq, tadqiqot Yaponiya modelining cheklovlarini ham ko‘rsatdi: a) mintaqaviy farqlar (shahar/qishloq) model samaradorligini sezilarli darajada o‘zgaritir edi; b) fuqarolik birlashmalarining huquqiy muhofazasining yetarli emasligi ba’zan politsiya nazarini chekladi [11]; c) raqamli texnologiyalar kengaytirilishi ijtimoiy nazoratni “zararsiz kuzatuv”ga aylantirish xavfini tug‘diradi.

Xitoy bilan solishtirma tahlil. Xitoy Xalq Respublikasida jamoat xavfsizligini ta’minlashga aholini jalb qilish Yaponiya modeliga nisbatan ancha davlat tomonidan institutsionalashtirilgan va ideologik jihatdan qat’iy boshqariladigan xususiyatga ega. “**図繪化組織**” (setka boshqaruvi) tizimi qat’iy vertikal muvofiqlashtirishni va partiyaviy strukturalarga integratsiyani talab qiladi [18]. Bu Yaponiyaning “ijtimoiy integratsiyalangan” paradigmasi va Xitoyning “davlat muvofiqlashtirilgan” modeli o‘rtasidagi tub farqni ko‘rsatadi.

Xulosa. Yaponiya modeli jamoat xavfsizligini ta'minlashda fuqarolik ishtirokining institutsionalizatsiyasi bo'yicha madaniy an'analar, tarixiy kontinuitet va moslashuvchan huquqiy nazoratning noyob sinergetik birligidir. Tadqiqot natijalari bo'yicha quyidagi asosiy xulosalar chiqariladi:

Birinchi, madaniy legitimatsiya – “wa”, “uchi” va o'zaro javobgarlik normalari – modelning ijtimoiy qabul qilishini ta'minlaydigan asosiy faktor hisoblanadi. Fuqarolarning xavfsizlikni saqlashni vazifa sifatida qabul qilishi rasmiy nazoratni kamaytiradi.

Ikkinchi, “koban” va “chūzaishō” tizimining dezentralizatsiyalashgan arxitekturasi politsiyaning fizik va psixologik jihatdan yaqinligini ta'minlaydi, ijtimoiy kapitalni shakllantiradi va o'zini o'zi nazorat qilishni kuchaytiradi.

Uchinchi, 3 milliondan ortiq ko'ngillini jalb qiluvchi fuqarolik birlashmalarining rivojlangan tarmog'i yuridik g'amxo'rlik yo'qligi bilan o'zaro amalda huquqiy g'amxo'rlik tizimini shakllantiradi. Mahalliy qarorlar va NPA ko'rsatmalariga asoslangan ko'p darajali normativ hujjatlar moslashuvchanlikni ta'minlaydi.

To'rtinchi, statistik tasdiqlash: 2002-2015 yillarda jinoyatchilik darajasining 64 foizga kamayishi [2.] va 1989-2021 yillarda 28,5 foizga pasayishi model amal qilishi va samaradorligini isbotlaydi [16].

Beshinchi, solishtirma tahlil Yaponiya va Xitoy modellari o'rtasidagi farqni yaqqol ko'rsatadi: Yaponiya modeli ixtiyoriylik va gorizontal o'zini o'zi nazorat qilishga asoslangan bo'lsa, Xitoy modeli davlat boshqaruvi va vertikal muvofiqlashtirishga asoslangan [18].

Amaliy ahamiyatlar va rivojlanish istiqbollari. O'zbekiston uchun amaliy jihatdan quyidagi omillarni hisobga olish lozim: a) Mahalliy kengashlar (mahalla) tizimini politsiya bilan hamkorlikka tayyorlash; b) “Koban” analoglari sifatida mahalliy politsiya postlarini rivojlantirish; c) Fuqaro qo'shnalari nazoratini madaniy jihatdan qadrlash orqali ijtimoiy normativlarni kuchaytirish.

Modelning kelgusi rivojlanish istiqbollari raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish, politsiya axborot tizimlarini zamonaviylashtirish va fuqarolik ishtirokini kengaytirish bilan bog'liq bo'ladi. Kelgusi tadqiqotlar Yaponiya modelining polietnik jamiyatlarga va postsovet davlatlar iqlimiga moslashuvchanligini, shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning fuqarolik ishtirokiga ta'sirini o'rganishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nakane C. Japanese Society. – Berkeley; Los Angeles: University of California Press, 1972. – XI. - 157 p.

2. National Police Agency of Japan. Crime Statistics 2015. – Tokyo: NPA, 2016. - 128 p.
3. Botsman D. Punishment and Power in the Making of Modern Japan. – Princeton: Princeton University Press, 2005. - 319 p.
4. Garon S. Molding Japanese Minds: The State in Everyday Life. – Princeton: Princeton University Press, 1997. - 313 p.
5. Birt M. Samurai in Passage: The Transformation of the Sixteenth-Century Kanto // Journal of Japanese Studies. – 1985. – Vol. 11. - Pp. 369-399.
6. Bestor T. Neighborhood Tokyo. – Stanford: Stanford University Press, 1989. - 347 p.
7. Bayley D. Forces of Order: Policing Modern Japan. – Berkeley: University of California Press, 1991. - 208 p.
8. Leonardsen D. Crime in Japan: Paradoxes of a Low-Crime Nation // International Journal of Law, Crime and Justice. – 2010. – Vol. 38(3). - Pp. 125-138.
9. Hera B. Koban: The Heart of Community Policing in Japan // Police Practice and Research. – 2017. - Vol. 18.
10. Tamura K. Community Crime Prevention in Japan // Crime Prevention and Community Safety. – 2004. - Vol. 6.
11. National Police Agency of Japan. Community Volunteers in Crime Prevention. – Tokyo: NPA, 2022.
12. Miyazawa K. Rewards for Information in Japanese Criminal Justice // Journal of Police Science. – 2019. - Vol. 72.
13. Police Law (Keisatsu-hō) // Law No. 162 of 1954. – Tokyo: Ministry of Justice, 1954.
14. Local Autonomy Law // Law No. 67 of 1947. – Tokyo: Ministry of Internal Affairs, 1947.
15. National Police Agency of Japan. Police White Paper 2023. – Tokyo: NPA, 2023.
16. Crime Statistics 2021. – Tokyo: NPA, 2022.
17. Kato Y. Community Policing in Japan and Asia // Asian Journal of Criminology. – 2018. -Vol. 13.
18. Li R. Grid Management System in China: A New Approach to Social Governance // Journal of Chinese Governance. – 2020. - Vol. 5(1).